

Dutor cholgusida ansambl ijrochiligi va konsert dasturi

Umida Musurmon qizi Baxtiyorova
Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya: Xalq cholgʻulari uzoq oʻtmishda paydo boʻlganligi haqida juda koʻp maʼlumotlar toʻplangan. Maʼlumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholgʻulari eramizdan ancha oldin dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholgʻular paydo boʻlganligi koʻp manbalarda qayd qilingan. Bu, haqiqatga toʻgʻri keladi, albatta. Chunki, eng qadimgi mehnat qoʻshiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan. Kishilar turmush tarzining oʻzgarib borishi, madaniy qarashlarning bir muncha rivojlanib borishi, mehnatga boʻlgan munosobatning ijobiylashib borishi natijasida boshqa cholgʻularni paydo boʻlishiga olib keladi. Ijrochilar soniga qarab (ikki yoki undan ortiq) ansambl duet, trio (terzetto), kvartet, kvintet, sextet, sepet, oktet, nonet, desimet, undesimet yoki duodecimet (sonlarning lotincha nomlariga koʻra) deb ataladi.

Kalit soʻzlar: dutor cholgusi, ansambl, musiqachilik, musiqa asbobi, ritmik tuzilish, puflama cholgʻu asboblari, puflama cholgʻular, torli asboblari

Ensemble performance and concert program on the instrument of Dutor

Umida Musurmon kizi Bakhtiyorova
Navoi State University

Abstract: A lot of information has been collected about the origin of folk instruments in the distant past. According to the data, it is assumed that the first musical instruments came to the world long before our era. It is recorded in many sources that percussion instruments first appeared in music. This is true, of course. Because the oldest labor songs were directly related to the rhythmic structure of work. As a result of changes in people's lifestyles, a certain development of cultural views, and a positive attitude towards work, other instruments appear. Depending on the number of performers (two or more), the ensemble is called a duet, trio (terzetto), quartet, quintet, sextet, septet, octet, nonet, decimet, undecimet or duodecimet (based on the Latin names of the numbers).

Keywords: dutor instrument, ensemble, musicianship, musical instrument, rhythmic structure, wind instruments, wind instruments, stringed instruments

Ijrochilar soniga qarab (ikki yoki undan ortiq) ansambl duet, trio (terzetto), kvartet, kvintet, sextet, sepet, oktet, nonet, desimet, undesimet yoki duodecimet (sonlarning lotincha nomlariga ko'ra) deb ataladi.

Odatda, mumtoz musiqadan meros bo'lib qolgan an'anaga ko'ra, ikki ishtirokchidan iborat guruh duet, uch kishidan iborat - trio, to'rt nafardan - kvartet, besh kishidan iborat - kvintet, olti kishidan iborat - sekset, yetti nafardan iborat - sepet deb ataladi, sakkizdan - oktet, to'qqiztadan - nonet va ko'proq ishtirokchilardan - ansambl yoki orkestr.

Uzoq ajdodlarimizning birinchi va asosiy musiqa asbobi inson tanasi edi. Oyoqlar, qo'llar va ovoz nafaqat yirtqichlardan qochish yoki aksincha, ov qilish, balki qarsak chalish, oyoqlarni terga urgan holda tovush chiqarish yoki musht bilan ko'kragiga urish va dahshatli qichqiriq qilish uchun kerak edi. Bizning tanamiz bugungi kungacha musiqaning ajralmas qismidir: musiqachilar barmoqlari bilan torlarni bosib ovoz hosil qiladi, nog'oralarni taqillatadi va karnay chaladi. Insonning cholg'u asbobini qanday chalayotganidan kelib chiqib, ular urma zarbli, puflama va torli cholg'ularga bo'linadi. Barabanlar urib chalinadi. Shamol Puflama cholg'u asboblari puflab chalinadi, torli asboblar esa yoki tirnab, yoki mediatr yordamida urib chalinadi.

Barabanga o'xshagan urma sozlar birinchi bo'lib paydo bo'ldi. Qadimgi odamlar nafaqat qo'lni qo'lda urib musiqiy ritm chiqarganlar, balki, quruq meva qobig'ida yoki hayvonning cho'zilgan terisida qo'l bilan urish mumkinligini tushunishgan. Hindiston xalqi yog'ochdan baraban yasagan. Qadimgi mayyaliklar esa maymun teri pardalarini ichi bo'sh daraxtga cho'zishgan. Barabanlar yordamida uzoq ajdodlarimiz sehr-jodu qilishga harakat qilishdi, masalan, yomg'irni chaqirishdi. Afrika qabilalari bir-birlariga xabarlarini yetkazish uchun baraban chalishdi.

Barabanni turli yo'llar bilan chalishni o'rgangan qadimgi odamlar puflama asboblarini yaratishgan. Ovoz hosil qilish uchun dastlab qamishni, ichi bo'sh suyaklar va shoxlardan foydalanib puflab musiqiy ovoz chiqarganlar. Keyin ular havo trubkadan boshqacha chiqishi uchun bir nechta teshik qo'shishga qaror qilishdi. Ma'lum bo'lishicha, bu teshiklarni yopilsa va ochilsa, ovoz o'zgarishi ma'lum bo'ldi. Eng qadimgi puflama cholg'usi 35-40 ming yil avval nay bo'lgan hozirgi nayning birinchi ko'rinishi hisoblanadi. U tulpor qanotining suyagidan yasalgan.

Dutor cholgusi esa cho'ponlarning musiqa asboblari hisoblanadi. Chunki u birinchidan yengil, olib yurish uchun qulay musiqa asbobidir. Dutor deb nomlanishining sababi esa uning 2 tordan iborat ekanligidadir.

Qadimgi odamlarda gitara yoki skripka kabi torli asboblar ham bo'lgan. Birinchi gitara kamon ekanligiga ishonishadi (u uzoq vaqt oldin, taxminan 60 ming yil oldin ixtiro qilingan). Ba'zi bir g'oyibona ovchi o'lja izlashdan chalg'ib, kamon tori yulinganda tovush chiqarayotganini payqadi. Keyin kamonga yana bir nechta qatorlar qo'shildi - qisqaroq va uzunroq qilinishi natijasida arfa paydo bo'ldi. Shuning uchun

arfa va lira torli asboblarning eng qadimiysi hisoblanadi. Arxeologlar qazib olgan eski arfalardan biri 4500 yoshda! Agar siz torlar yaqinida ichi bo'sh narsalarni, masalan, quritilgan qovoqni qo'ysangiz, unda torlarning jarangi yanada qiziqarli eshitiladi. Gitaralar, balalaykalar, skripkalar va violonchellar shunday paydo bo'ldi.

Musiqqa san'ati insoniyatning ma'naviy boyligi, asriy qadriyatlarini namoyon etuvchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib kelinadi. Xususan, milliy musiqiy cholg'ularda ham har bir xalqning uzoq yillar mobaynida shakllanib kelgan rangbarang an'analari o'z aksini topadi. Shunday ekan cholg'ularni insoniyat ma'naviyatining bir bo'lagi sifatida o'rganib, tadqiq va targ'ib etish eng dolzarb masalalardan biri desak xato bo'lmaydi. Tanbur, dutor, chang, nay, gijjak, rubob kabi xilma-xil milliy cholg'ularimiz o'ziga xos tuzilish va tarixga ega bo'lib, ayniqsa, bu cholg'ular orasida dutor cholg'usi nozik va mayin nola va qochirimlarga ega ekanligi hamda xonaki sharoitlarda ijro etishga moyilligi bilan ajralib turadi.

Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish masalalari maqsad qilib qo'yilgan. Haqiqatdan ham yosh avlod tarbiyasida maqomlarimizning, mumtoz musiqaning roli juda katta. Musiqaga oshufta qalbdan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Bu fanda isbotini topgan. Yana qarorda mumtoz musiqqa me'rosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish nazarda tutilgan. Sha borada ushbu o'quv qo'llanmada o'zbek xalq kuylari, bundan oldin notaga tushirilmagan namnalar, shashmaqomning cholg'u bo'limidagi ba'zi-bir kuylar va nasr bo'limining ba'zi turkumlari dutor cholg'usiga moslab notalashtirildi.

Qoida tariqasida, kamera ansambliga ikkidan o'ngacha musiqachilar kiradi, kamdan-kam hollarda. Tarixan ayrim kamera ansamblarining kanonik cholg'u kompozitsiyalari, masalan, fortepiano triosi, torli kvartet, fortepiano kvinteti va boshqalar rivojlangan.

Dirijyor (fransuzcha diriger - boshqarish, boshqarmoq, rahbarlik qilmoq) - ansambl (orkestr, xor, opera va boshqalar) musiqasini o'rganish va ijro etish boshlig'i. Ansambl sinfi fan sifatida o'qitilishi jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi: - cholg'u musiqasini, an'anaviy, o'zbek va jahon kompozitorlari ijodiga xos katta va kichik shakllardagi turli janrlardagi musiqiy asarlarni jamoaviy ijrochilik qoidalarini uyg'unlashtirgan holda yuqori darajada bajarish; - cholg'uda yuksak ijrochilik texnika san'atini mukammal va chuqur o'zlashtirish. - cholg'uni avaylash, asrash va hamisha soz holatida saqlash. - jamoaviy ijrochilikda bir-birini eshitish qobiliyatini yanada izchillik bilan oshirish. Talabalar fanning vazifalarini chuqur tushunib oliashlari, musiqiy meros namunalarini puxta o'zlashtirib borishlari jarayonida o'zbek xalq cholg'u asboblarning tuzilishi, sozlanishi, diapazoni, badiiy va texnik imkoniyatlari, rangbarang ijro usullari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Faqat xalq

cholgʻu va ulardan tuzilgan anʻanaviy va aralash ansambllar hamda ularning ijro xususiyatlarini oʻrganish bilan chegaralanmay, balki birinchi darslardanoq boshqa xalqlarning turli ansambllari, butun dunyoga keng tarqalgan boshqa cholgʻular haqida ham kerakli bilamlarni olishlari talab etiladi.

Oʻzbek xalq cholgʻu asboblari va ularda ijro etish hozirgi davrda ham xalqimizning musiqa madaniyati hayotida muhim oʻrin tutib kelmoqda. Cholgʻu asboblarida ijro etish sanʻatini har tomonlama rivojlantirib borilishi xalqning musiqa madaniyatini oʻstirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Cholgʻu asboblarida ijro etishni yangi bosqichlarga koʻtarish oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib birinchi navbatda, shaklan va mazmunan turli ansambllarni tashkil etish imkonini kengaytiradi. Ikkinchidan esa, koʻp ovozli ijro sanʻati - oʻzbek xalq cholgʻu asboblari orkestri faoliyatini rivojlantirish imkonini ham hosil qiladi.

Ansambl birgalikda ijro etish maʼnosini bildiradi. Oddiy qilib aytganda ansambl oʻziga xos koʻrinish, shakl, ijrochilar toʻdasibi. Uning tarkibiga kiruvchi har bir sozanda-ijrochi alohida dunyoqarash, mahorat, saviyaga ega. Ijrochini kamolot sari intilishi uchun musiqiy asarlarni mohiyatini gʻoyaviy va badiiy idrok etishi, oʻz mahorati bilan cheklanib qolmay jamoadagi boshqa ijrochilarni ham qalban his etishi, oʻrni kelganda jamoaga yordam beruvchi, oʻzaro hamkorlikda yondashib muhim vazifalarni bajarib borishi tarkibning eng asosiy vazifalaridandir. Ansambl oʻz tarkibidagi ijrochilar soniga qarab turlicha ataladi. Masalan, ikki ijrochidan iborat boʻlsa - duet, tarkibida uch ijrochini biriktirgan boʻlsa - trio, toʻrt ijrochi boʻlsa - kvartet, besh ijrochi - kvintet, olti ijrochi - sekstet, etti ijrojisini oʻzida biriktirgan boʻlsa - septet, sakkiz ijrochisiga ega boʻlsa - oktet deb aytiladi.

Oʻzbekiston radiosi qoshida atoqli musiqiyshunos olim, akademik Yu.Rajabiy tomonidan 1927 yilda tashkil etilgan unison ansambli cholgʻu ijrochiligi rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Bu jamoa ijrochilari keyinchalik D.Zokirov nomidagi xalq cholgʻu asboblari orkestrini asosini tashkil etgan. Shu oʻrinda taʼkidlab oʻtish joizki, ansambl tashkil etilganining dastlabki kunlaridan eʼtiboran unig tarkibidan usta Usmon Zuparov tomonidan takomillashtirib yasalgan dutor va gʻijjak bas hamda tanbur cholgʻulari oʻrin olgan. Lekin bu cholgʻular oʻzining tuzilish hajmini kattaligi sababli 1934 yilga kelib ansambl tarkibidan chiqariladi. Ansambl jamoasi I.Hamzin rahbarligida mashgʻulotlar oʻtkazishi, konsertlar berishi bilan birga nota savodxonligini ham oʻrganib boradi.

Ansambl iborasi fransuzcha —ensemblel soʻzidan olingan boʻlib - birgalikda degan maʼnoni bildiradi. Cholgʻu asboblarida birgalikda chalish, joʻrnavoqlikda qoʻshiq kuylab raqslar ijro etish ansamblning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ansambl musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi, bir guruh sozanda va xonandalarning bir butun badiiy jamoa holida chiqishidir. Ansambl tarkibiy tuzulmasi va faoliyat yuriritishiga koʻra oʻz nomiga ega boʻladi. Masalan, vokal cholgʻu

ansambli, cholgʻu asboblari ansambli, maqom ansambli, raqsa ansambli va hokazo. Ansambl atamasi yaxshi tuzilgan va yuksak ijrosi bilan ajralib turadigan badiiy jamoalarga nisbatan ham qoʻllaniladi. Ansamblning asosiy xususiyati va vazifalaridan biri shundaki, uning tarkibidagi har bir ijrochini kamolot sari intilishi uchun musiqiy asarlar mazmunmohiyatini, gʻoyaviy tuzulmasini badiiy idrok etishi, oʻz mahorati bilan cheklanib qolmay jamoadagi boshqa ijrochilarni ham qalban his etishi, oʻrni kelganda joʻrnavorlik vazifasini bajarib borishidir. Ansambl tarkibiga kiruvchi har bir sozanda-ijrochi oʻziga xos alohida bilim, saviya, mahoratga ega boʻlsada, lekin ularning barchasi bir maqsad sari faoliyat yuritishi talab etiladi.

Bir xil cholgʻulardan tashkil topgan ansambllar turiga: doirachilar, rubobchilar, changchilar, dutorchilar, gʻijjakchilar va shunga oʻxshagan bir xil cholgʻulardan tashkil topgan ansambllarni misol keltirish mumkin.

Musiqqa - inson maʼnaviy olamining tarjimoni, u inson tuygʻusiga taʼsir etish bilan kishini maʼnaviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqqa sanʼati insonlarga va ayniqsa yoshlarga koʻtarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yoʻnaltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham yurtimizda musiqqa sanʼatini rivojlantirish, yosh isteʼdodlarni qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu oʻquv qoʻllanmani yozishdan maqsad yosh isteʼdod egalarining ustozlar maktablarini davom ettirishlari uchun kerakli mabʼuladi degan umidimiz bor. Shashmaqomning ashula boʻlimidagi baʼzi bir turkumlar, chogʻu boʻlimidagi ayrim asarlar dutor soziga moslashtirildi. Talabaning nota savodini oshiradi va vaqtini tejaydi. Bir maqom ashulasini dutorga moslashtirib chalish uchun anchagina vaqt ketib qolishi mumkin. Bu nota yozuvlarida esa tayyor dutorga moslashtirilgan. Bir ashulani oʻrganish vaqtiga butun boshli turkumni oʻrganish imkoniyati bor. Pedagogik faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u ansambl fanidan dars beruvchi oʻqituvchidan boshqaruvchilik, pedagogik, tashkilotchilik qobiliyati va mahoratning boʻlishini talab etadi. Ansamblni boshqaruvchi oʻqituvchi birinchi navbatda puxta nazariy bilimga ega boʻlishi, ansambl tarkibidagi barcha cholgʻular xususiyati, ijro imkoniyatlarini yaxshi bilishi, ularning ansambl ijrochiligiga moslashtirish yoʻli va usullarini, repertuardagi har bir musiqqa asari shakli va oʻziga xosligi (fakturasi)ni erkin tahlil qilishni, aralash ansambl partiturasini puxta oʻqiy bilishni, asarlarni ansambl asboblari ijrosi uchun moslashtira olishni bilishi kerak. Shuningdek, garmonik, intonastiyali, tembrli rivojlangan oʻquv qobiliyatiga, ritmni aniq his qilish malakasiga hamda vokal sanʼati asosini yetarlicha farqlay oladigan bilimga ega boʻlishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. СС Болта-Зода. Принципы и приложения музыкальной формы. Science and Education 5 (2), 432-438

2. СБ Саидий. Нестандартные психологические структуры и модуляция в педагогике. *Science and Education* 5 (2), 348-354
3. СС Болта-Зода. Обменное приёмы аккордов семейство субдоминанты и доминанты использование на фортепиано. *Science and Education* 5 (2), 439-444
4. СБ Саидий. Художественно-педагогическое общение как средство формирования музыкальной мотивации школьников. *Science and Education* 5 (2), 322-327
5. Саидий, Саид Болта-зода. Адаптивность детей к школе при посещении и непосещении дошкольного учреждения. *Science and education* 4 (5), 1105 - 1112
6. Ропиева, Дурдона Акмаль кизы, Саид Болтазода, Саидий. Технологии формирования и развития вокально-хорового навыка студентов через народные песни. *Science and Education* 4 (2), 1330-1336
7. СБ Саидий. Определения понятий диктанта в теории музыки. *Science and Education* 3 (12), 823-828
8. Саидий, Саид Болта-зода. Бекзод Турсун угли Алиев. Простые, сложные и смешанные размеры музыки при проведении уроков дирижирования, креативные методы обучения. *Science and Education* 3 (5), 1484-1492
9. Саидий, Саид Болта-зода. Мурадова, Махлиё Раджабовна, Эрназарова, Азиза Фахритдин кизи. Интерактивные методы обучения творчеству русских композиторов классе фортепиано в детской музыкальной школы. *Science and Education* 3 (4), 1605-1611
10. Саидий, Саид Болта-зода. Алиев, Бекзод Турсун угли. Простые, сложные и смешанные размеры музыки при проведении уроков дирижирования, креативные методы обучения. *Science and Education* 3 (5), 1484-1492
11. Саидий, Саид Болта-зода. Эрназарова, Азиза Фахритдин кизи. Интерактивная методика обучения жанрам, созданных на народные лады, учащимся музыкальных и художественных школ. *Science and Education scientific journal* 4 (ISSN 2181-0842), 1618
12. Саидий, Саид Болта-зода. Механизмы формирования культуры почитания человеческих ценностей у старшеклассников на основе фольклора в хоре. *Science and Education* 4 (2), 1386-1391
13. Саидий, Саид Болта-зода. Психологические характеристики музыкальных звуков. *Узбекистан* 2 (2), 76-82
14. Ибрагимов, Умид Собиржонович, Саид Болтазода, Саидий. Современные методы формирования техники исполнения студентов на занятиях. *Science and Education* 4 (2), 1234-1239
15. Ропиева, Дурдона Акмаль кизы, Саид Болтазода, Саидий. Технологии формирования и развития вокально-хорового навыка студентов через народные песни. *Science and Education* 4 (2), 1330-1336

16. КБ Холиков. проблематика музыкальной эстетики как фактическая сторона повествования. *Science and Education* 3 (5), 1556-1561
17. КБ Холиков. Тяготение основа-основ в музыкальной композиции. *Scientific progress* 2 (4), 459-464
18. КБ Холиков. Вокальная культура как психологический феномен. *Актуальные вопросы психологии, педагогики, философии* 2 (11), 118-121
19. КБ Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведения. *Science and Education* 4 (7), 384-389
20. КБ Холиков. Три новые версии дефиниции формулировки мажора и минора. *Scientific progress* 5 (11), 150-157
21. КБ Холиков. Уровень и качество усвоения предмета музыки, закрепление памяти и способности учащихся. *Science and Education* 5 (2), 452-458
22. КБ Холиков. Обученность педагогике к освоению учащимися сложным способам деятельности. *Science and Education* 5 (2), 445-451
23. КБ Холиков. Обобщенные функции связей при исполнении академического пения включающей преобразования фальцета и вибрационной функции. *Science and Education* 5 (11), 287-292
24. КБ Холиков. Искажения при синхронном направлении двух голосов в одновременной системе контрапункта и их решение. *Science and Education* 5 (11), 143-149
25. КБ Холиков. педагогическое корректирование психологической готовности ребенка к обучению фортепиано в музыкальной школе. *Science and Education* 4 (7), 332-337
26. КБ Холиков. процесс исследования разными методами высшей нервной деятельности. *Science and Education* 5 (11), 113-118
27. КБ Холиков. прослушка классической музыки и воздействия аксонов к нервной системе психологического и образовательного процесса. *Science and Education* 4 (7), 142-153
28. КБ Холиков. Новые мышление инновационной деятельности по музыкальной культуры в вузах Узбекистана. *Science and Education* 4 (7), 121-129
29. К.Б. Холиков. Отличие музыкальной культуры от музыкального искусства в контексте эстетика. *Science and Education* 3 (5), 1562-1569.
30. КБ Холиков. Модели информационного влияния на музыку управления и противоборства. *Science and Education* 4 (7), 396-401